TIJORAT BANKLARINING OPERATSION BARQARORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Yashin Boltayev

E-mail: yashinboltaev@gmail.com

Tel: +99897 305 03 07

ORCID: 0009-0005-5345-2734

Kirish

Bugungi kunda global moliya tizimida yuz berayotgan tarkibiy o‘zgarishlar, raqamli texnologiyalarning bank faoliyatiga jadal integratsiyalashuvi hamda moliyaviy xizmatlar ko‘lamining kengayishi tijorat banklari faoliyatining uzluksizligi va operatsion barqarorligini ta’minlash masalasini tobora dolzarb etmoqda. Banklarda biznes jarayonlarining murakkablashuvi, axborot tizimlariga bog‘liqlikning ortishi, kiberxavflar, texnik uzilishlar, inson omili va tashqi ta’sirlar operatsion faoliyatda turli xatarlarning yuzaga kelish ehtimolini oshirmoqda. Shu jihatdan, tijorat banklarining nafaqat operatsion risklarni samarali boshqarishi, balki turli salbiy ta’sirlar sharoitida muhim bank xizmatlarining uzluksizligini saqlab qolish, yuzaga kelgan uzilishlarga tezkor moslashish va faoliyatni belgilangan muddatlarda tiklash imkoniyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tijorat banklarining operatsion barqarorligini oshirish bank tizimining ishonchliligi, moliyaviy xizmatlar uzluksizligi hamda mijozlar manfaatlarini himoya qilishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bunda operatsion jarayonlarni kompleks monitoring qilish, muhim biznes xizmatlarini aniqlash, risklarni erta aniqlash va baholash mexanizmlarini takomillashtirish, axborot va kiberxavfsizlikni mustahkamlash, biznes uzluksizligi hamda favqulodda holatlarda faoliyatni tiklash tizimlarini rivojlantirish alohida ahamiyatga ega. Shu sababli tijorat banklarida operatsion barqarorlikka ta’sir etuvchi omillarni tizimli o‘rganish va uni oshirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash bank faoliyati samaradorligi hamda barqarorligini ta’minlashga qaratilgan dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi.

ASOSIY QISIM

Operatsion barqarorlik konsepsiyasining nazariy asoslari tashkilotning turli ichki va tashqi uzilishlarga qarshi turishi, ularga moslashishi hamda faoliyatini qisqa muddatlarda tiklash qobiliyati bilan izohlanadi. Y. Sheffi va J. Rice tomonidan ilgari surilgan “barqaror korxona” (resilient enterprise) yondashuviga ko‘ra, tashkilot barqarorligi faqat yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatarlarning oldini olish bilan cheklanmaydi, balki uzilish sodir bo‘lgan sharoitda faoliyatni tezkor tiklash imkoniyatini shakllantirishni ham nazarda tutadi. Mualliflar operatsion barqarorlikni ta’minlashda resurslar zaxirasini yaratish (redundancy) va jarayonlarning moslashuvchanligini (flexibility) oshirishni asosiy mexanizmlar sifatida ko‘rsatadi. Bunda moslashuvchanlik tashkilotga kutilmagan o‘zgarishlarni tez aniqlash, ularga javob qaytarish va asosiy operatsion jarayonlarning uzluksizligini saqlab qolish imkonini beradi [1].

Y. Sheffi tomonidan rivojlantirilgan nazariy yondashuvda esa tashkilotning operatsion barqarorligi xavflarga tayyorgarlik ko‘rish, zaifliklarni aniqlash va salbiy hodisalardan keyin tiklanish qobiliyati bilan uzviy bog‘langan. Ushbu yondashuvga ko‘ra, barqarorlik faqat favqulodda vaziyat yuzaga kelganidan keyingi choralar majmui emas, balki tashkilot boshqaruv tizimiga oldindan integratsiya qilinishi lozim bo‘lgan strategik xususiyat hisoblanadi. Xususan, muallif tahdidlarni oldindan aniqlash, operatsion jarayonlardagi zaif nuqtalarni baholash, muqobil resurs va jarayonlarni shakllantirish hamda xodimlarning tezkor qaror qabul qilish salohiyatini rivojlantirishni barqaror faoliyatning muhim omillari sifatida asoslaydi [2]. Mazkur nazariy qarashlar tijorat banklari faoliyatiga tatbiq etilganda, bankning texnologik, tashkiliy yoki tashqi uzilishlar sharoitida muhim xizmatlarni davom ettirish salohiyatini shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Bank tizimida operatsion barqarorlik konsepsiyasi Bazel bank nazorati qo‘mitasi (BCBS) tomonidan yanada tizimlashtirilgan. Qo‘mita yondashuvida operatsion barqarorlik bankning turli uzilishlar sharoitida muhim operatsiyalarni amalga oshirish qobiliyati sifatida qaraladi. Bunda operatsion risklarni boshqarish va operatsion

barqarorlik o‘zaro bog‘liq, biroq maqsadi jihatidan farqlanuvchi tushunchalar hisoblanadi: operatsion risklarni boshqarish salbiy hodisalarning yuzaga kelish ehtimoli va ta’sirini kamaytirishga yo‘naltirilsa, operatsion barqarorlik yuzaga kelgan uzilish sharoitida ham muhim bank operatsiyalarining davomiyligini ta’minlashga qaratiladi. BCBS operatsion barqarorlikni oshirishda korporativ boshqaruv, operatsion risklarni boshqarish, biznes uzluksizligini rejalashtirish, o‘zaro bog‘liqliklarni aniqlash, uchinchi tomonlarga bog‘liq risklarni boshqarish, hodisalarni boshqarish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va kiberxavfsizlikni ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilaydi [3].

Tijorat banklarining operatsion barqarorligini ta’minlash masalasi bank faoliyati ko‘lamining kengayishi bilan yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, O‘zbekistonda 2026-yil 1-iyul holatiga bank tizimi aktivlari 1 005,8 trln so‘mga yetib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 18 foizga oshgan, kredit portfeli 642,8 trln so‘mni tashkil etib, 12 foizga, depozitlar hajmi esa 473,8 trln so‘mga yetib, 33 foizga ko‘paygan [4]. Mazkur tendensiyalar banklar tomonidan boshqariladigan moliyaviy resurslar va operatsiyalar hajmining jadal kengayayotganligini ko‘rsatadi. Fikrimizcha, bank operatsiyalari ko‘lamining bunday o‘sishi operatsion barqarorlikka qo‘yiladigan talablarni ham mutanosib ravishda kuchaytiradi. Chunki operatsiyalar hajmi va mijozlar bazasining kengayishi axborot tizimlari, to‘lov infratuzilmasi, ma’lumotlarni qayta ishlash hamda bankning boshqa muhim biznes jarayonlariga tushadigan operatsion yuklamani oshiradi.

Shu nuqtai nazardan, tijorat banklarining operatsion barqarorligini faqat sodir bo‘lgan operatsion yo‘qotishlar miqdori orqali baholash yetarli emas. Bankning real barqarorligi uning muhim xizmatlari uzilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan hodisalarni oldindan aniqlashi, uzilish sodir bo‘lgan taqdirda uning ko‘lamini cheklashi va xizmatlarni maqbul muddat ichida tiklay olishi bilan ham tavsiflanishi lozim. Bazel qo‘mitasi ham operatsion barqarorlikni bankning uzilishlar sharoitida kritik operatsiyalarni bajarish qobiliyati sifatida belgilab, bunda biznes uzluksizligi, o‘zaro bog‘liq jarayonlar, uchinchi tomonlarga qaramlik, insidentlarni boshqarish

hamda barqaror axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yagona tizim doirasida boshqarishni nazarda tutadi [5]. Shu asosda, banklarda operatsion barqarorlikni baholashda an'anaviy "yo'qotishlar miqdori" yondashuvidan "uzilish – ta'sir – tiklanish" zanjiriga asoslangan kompleks yondashuvga o'tish maqsadga muvofiq.

Tadqiqot nuqtai nazaridan, tijorat banklari operatsion barqarorligini oshirishning muhim yo'nalishlaridan biri kritik bank operatsiyalarini ustuvorlik darajasi bo'yicha tasniflash hisoblanadi. Bunda to'lovlar, pul o'tkazmalari, masofaviy bank xizmatlari, mijozlar ma'lumotlarini qayta ishlash va boshqa muhim operatsiyalar uchun alohida "uzilishga chidamlilik chegarasi"ni belgilash taklif etiladi. Ushbu chegara operatsiyaning qancha vaqt davomida to'xtab qolishi mumkinligi, bir vaqtning o'zida qancha mijozga ta'sir qilishi, tiklash uchun talab qilinadigan vaqt hamda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy yo'qotishlarni birgalikda hisobga olishi lozim. Natijada bankning operatsion barqarorligi faqat risk sodir bo'lish ehtimoli bilan emas, balki kritik xizmatning uzilishga bardoshliligi va tiklanish tezligi orqali ham baholanadi. Bunday yondashuv operatsion barqarorlikning zaif nuqtalarini muammo yuzaga kelishidan oldin aniqlash imkoniyatini kengaytiradi.

Shuningdek, tijorat banklarida operatsion barqarorlikni oshirish uchun "Operatsion barqarorlik indeksi"ni shakllantirish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. Mazkur indeks tarkibiga axborot tizimlarining uzluksiz ishlash darajasi, kritik operatsiyalarni tiklash tezligi, operatsion insidentlar takrorlanish darajasi, kiberxavfsizlik holati, uchinchi tomon xizmatlariga qaramlik hamda biznes uzluksizligi rejalarining amaliy sinov natijalarini kiritish mumkin. Ushbu ko'rsatkichlarning yagona integral indeksga birlashtirilishi bank rahbariyatiga operatsion barqarorlik holatini davriy ravishda o'lchash, zaif yo'nalishlarni aniqlash va resurslarni risk darajasi yuqori bo'lgan jarayonlarga ustuvor yo'naltirish imkonini beradi. Natijada operatsion barqarorlik bank faoliyatining faqat himoya mexanizmi sifatida emas, balki boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydalaniladigan o'lchanadigan strategik ko'rsatkich sifatida shakllanishi mumkin.

Xulosa

Tahlillar tijorat banklarining operatsion barqarorligi bank xizmatlari uzluksizligini ta’minlash, operatsion uzilishlar ta’sirini kamaytirish va kritik jarayonlarni tezkor tiklashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Raqamli bank xizmatlarining kengayishi sharoitida operatsion barqarorlikni faqat moliyaviy yo‘qotishlar bilan emas, balki kritik operatsiyalarning uzilishga bardoshliligi va tiklanish tezligi asosida baholash maqsadga muvofiq.

Shu asosda tijorat banklari amaliyotiga “Operatsion barqarorlik indeksi”ni joriy etish taklif etiladi. Indeksni axborot tizimlari uzluksizligi, kritik xizmatlarni tiklash tezligi, operatsion insidentlar, kiberxavfsizlik va biznes uzluksizligi kabi indikatorlar asosida shakllantirish banklarning zaif operatsion yo‘nalishlarini aniqlash hamda ularni barqarorlashtirish bo‘yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sheffi, Y., Rice, J. B. Jr. (2005). A Supply Chain View of the Resilient Enterprise. MIT Sloan Management Review, Vol. 47, No. 1, pp. 41–48.
2. Sheffi, Y. (2005). The Resilient Enterprise: Overcoming Vulnerability for Competitive Advantage. Cambridge, MA: MIT Press.
3. Basel Committee on Banking Supervision (2021). Principles for Operational Resilience. Bank for International Settlements, Basel, March 2021.International Organization for Standardization. ISO/IEC 27001:2022 - Information security, cybersecurity and privacy protection - Information security management systems - Requirements. - Geneva: ISO, 2022 [Elektron resurs]. - URL: https://www.iso.org/standard/27001
4. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Information on main indicators of banking sector, 2026-yil 1-iyul holatiga. Bank tizimi aktivlari – 1 005 803 mlrd so‘m, kreditlar – 642 810 mlrd so‘m, depozitlar – 473 764 mlrd so‘m, kapital – 148 885 mlrd so‘m. Markaziy bankning rasmiy statistik ma’lumotlari
5. Basel Committee on Banking Supervision. Principles for Operational Resilience. Bank for International Settlements, Basel, March 2021. Bazel qo‘mitasining rasmiy hujjati